

**POETIK NUTQDA QO‘LLANGAN MUBOLAG‘ANING O‘ZBEK
TILSHUNOSLIGIDA TADQIQI**

Gulmira Temirovna Komilova

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Gumanitar fanlar fakulteti O'zbek tilshunosligi kafedrası o'qituvchisi

Anotatsiya:

Maqolada mubolag'aning o'zbek tilshunosligida o'rganilganligi va kimlar bu xususda ish olib borganliklari haqida fikr yuritilgan. Shuningdek badiiy asarlardagi misollar orqali tushuntirishga hatak qilingan.

Kalit so'zlar: Mubolag'a, giperbola, pragmatik tilshunoslik, tahlil, badiiy asar, matn, lison, lisoniy tahlil.

Аннотация:

в статье рассматривается изучение преувеличения в узбекском языкознании, и кто над ним работал, а также сделана попытка объяснить его на примерах из художественных произведений.

Abstract:

the article deals with the study of exaggeration in Uzbek linguistics and who worked on it, and an attempt is made to explain it using examples from works of art.

ham tilning ijtimoiy hodisa sifatida qo‘llanishining tadqiq e‘tilishiga e‘tibor kuchayib bormoqda. Tilning kishilar orasidagi muhim muloqot vositasi ekanligiga va uning muloqotdagi betakror vositachilik vazifasiga, uning muloqot ehtiyojidan kelib chiquvchi bir qator jihatlari o‘rganishga olimlar tomonidan bo‘lgan qiziqish tobora oshib bormoqda. Umumiy tilshunoslikning stilistika yoki “uslubshunoslik” deb ataluvchi bo‘limi tilni muloqot vositasi sifatida tadqiq etuvchi uning kommunikativ-pragmatik masalalari va muommolarini izchil, sistemali o‘rganish hamda yoritishdek muhim vazifani bajaradi.

Matn tahlilini sintaksis yoki stilistikada o‘rganish lozimmi, yoxud buning uchun “matn tilshunosligi” deb ataluvchi yangi sohani ilmiy asoslash kerakmi, degan savollar ham fanda ayrim bahsmunozaralarga sabab bolgan. O'tgah asming 60-yillariga qadar gap sintaksisi lingvistik tahlilning eng yuqori pog‘onasi, deb hisoblanar, lingvistik tadqiqotlar gap tahlili bilan tugatilar edi. Bir necha gaplaming mazmuniy va struktur yaxlitligidan tashkil topgan matn esa ilmiy tahlilga tortilmas edi. Ma'lumki, gap tilning eng yuqori pog‘onasini tashkil etuvchi birlik sanaladi. Ammo gap nutqiy jarayonda eng kichik birliklar sirasiga kiradi. Shuning uchun ham gapni matnning qurilish materiali tarzida talqin etish maqsadga muvofiq. Dunyo tilshunosligida matn va uning lingvistik tabiati haqida qator fikrlar o‘rtaga tashlangan. Fransuz tilshunosi R.Bart: “Ichki bog‘lanishli bo‘lgan, muloqot maqsadida mazmunan o‘zaro birikkan gaplardan tashkil topgan nutqning har qanday parchasi matn deb ataladi” desa, polyak

tilshunosi A.Boguslavskiy matnni bir necha gapdan tashkil topgan nutqiy material tarzida izohlaydi. Bunda u asosiy e'tiborini muallif nima haqida gapirayotgani va uning mazmuniga emas, balki mazkur matn qanday komponentlardan tuzilayotganiga qaratadi. K.Kojevnikova tadqiqotlarida asosiy e'tibor matnning bog'lanishli nutq mahsuli ekanligiga qaratiladi va uning mazmuniy jihatdan tugallangan bo'lishi alohida uqtiriladi. Olimaning matn komponentlari o'zaro ma'no jihatdan ham, grammatik jihatdan ham bog'lanishli bo'lishi haqidagi fikri e'tiborga molikdir, chunki ko'pchilik tilshutvoslar matn komponentlarini faqat mazmuniy bog'lanishli bo'lishini ta'kidlaydilar va ulaming leksik-grammatik vositalar orqali bog'lanishini nazardan chetda qoldiradilar. Chex tilshunosi K.Kojenikova matnni mazmuniy jihatdan tugallangan eng yuqori ideal kommunikativ birlik sifatida tushinadi. Shuning uchun matnning gap, murakkab sintaktik qurilma, abzas, bob singari birliklar munosabatidan tashkil topgan nutq yoki til birligi tarzida izohlanishi maqsadga nomuvofiqligini alohida ta'kidlaydi. Rus olimi M.V.Lyapon matn tavsifi quyidagi to'rt belgiga ko'ra asoslanishi mumkinligini ko'rsatadi: 1. Matn - bu jumalarning o'zaro munosabatidan kelib chiquvchi xabardir. Matn tadqiqotchi uchun til hodisalarini o'rganishda birdan bir manbadir. 2. Matn bu so'zlovchming nutqiy qobiliyatini ro'yobga chiqaruvchi ; vositadir. Bu jarayonda matn tilning nutqda real qo'llanilishini ta'minlovchi makon vazifasini ham bajaradi. 3. Matn bu so'zlovchining faol nutqiy faoliyati mahsulidir. 4. Matn bu til sistemasining kommunikativ jarayonda muhim funksiya bajaruvchi eng yuqori pog'onasidir. M.V.Lyapon matn shakllanishida inson omilining eng muhim omillaridan biri ekanligini, inson matn shakllanishi uchun jonli manba ekanligini ta'kidlaydi. O'tgan asming 90- yillaridan boshlab o'zbek olimlari ham matn tilshunosligining nazariy muammolari bilan shug'ullana boshladilar.

Bu jihatdan B.O'rinboyev, R.Qo'ng'urov, J.Lapasovlaming "Badiiy tekstrving lingvistik tahlili" nomli o'quv qo'llanmasi alohida ahamiyat kasb etadi. Bunda matn tiplari, ulaming umumiy va o'ziga xos belgilari matnning lisoniy tahlili metodologik tamoyillari, matn yaratish muammolari ifoda vositalarining tanlanishi va ulaming matn tuzilishidagi roli singari dolzarb masalalar haqida ma'lumotlar beriladi. Ozbek tilshunosligida matn tadqiqi xususida gap ketganda, M.To'xsanovning "Mikromatn va o'zbek badiiy nutqida uning kogerentligini ifodalovchi vositalar" mavzusidagi nomzodlik ishini ta'kidlash joiz. A.Mamajonovning 1989 yilda nashr qilingan "Tekst lingvistikasi" nomli qo'llanmasi ushbu masalaga bag'ishlangan dastlabki o'quv qo'llanmasi ekanligi bilan diqqatga sazovor. Bu o'quv qo'llanmada matnning nazariy masalalari, uning maqomi, birliklari, matn turlari, matn tarkibiy qismlari, matn tarkibiy qismini bog'lovchi vositalar kabi qator masalalar yoritilgan. M.Hakimovning "O'zbek ilmiy matnining sintagmatik va pragmatik xususiyatlari" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasida o'zbek tilining ilmiy uslubi matn kategoriyasi aspektida o'rganilgan, gumanitar fanlarga oid ilmiy matnlarning sintagmatik va pragmatik xususiyatlari ochib berilgan. O'zbek tilidagi diniy matnlar ekzotik leksikasi tadqiqotchi N.Ulug'ovning nomzodlik ishida tadqiqot obyekti bo'lgan. N.Ulug'ov diniy matn tilshunoslikda o'ziga xos alohida matn turi sifatida o'rganilishi maqsadga muvofiq, degan fikrini ekzotik leksika materiallari asosida dalillashga intiladi. Prof. E.Qilichevning "Matnning lingvistik tahlili" (2000) nomli o'quv qo'llanmasida matnning ko'rinishlari va uni lisoniy tahlil qilish namunalari berilgan. Eng muhimi, ishda poetik va nasriy matnlarni sharhlab o'qish hamda tahlil qilish matnni "lingvistik mikroskop ostida" o'rganishga oid mashq namunalari keltirilgan. N.Tumiyozov, B.Yo'ldoshevlar tomonidan ham ushbu fan

bo'yicha ma'ruzalar matnlari nashr qilindi va fanning muhim tushunchalari haqida keng ma'lumot berildi.

Ma'lumki, pragmatika tilshunoslikning yangi bir nazariy va amaliy tarmog'i sifatida insonning ijtimoiy faoliyatini o'zida mujassamlashtirgan nutqiy jarayon; nutqiy vaziyat ta'siri bilan namoyon bo'luvchi, nutq ishtirokchilariga xos kommunikativ niyat bilan aloqador masalalarni o'rganadi. Lingvistik pragmatikaning o'zbek tilshunosligida shakllanishida M.Hakimovning tadqiqoti alohida ahamiyat kasb etadi. Uning "O'bek tilida matnning pragmatik talqini" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasi o'zbek filologiyasida matn tilshunosligi rivojiga qo'shilgan munosib hissa bo'ldi. Mazkur qo'llanmaning mualliflaridan biri M.Yo'ldoshevning badiiy matn lingvopoetikasiga bag'ishlangan doktorlik dissertatsiyasida matn nazariyasiga oid muhim ma'lumotlar beriladi. U, shuningdek, ushbu tadqiqot bilan bog'liq bir qancha o'quv qo'llanmalarni nashr qildirdi: "Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari" (T.2007), "Badiiy matn lingvopoetikasi" (T.: "Fan", 2008), "Badiiy matnning lisoniy tahlili" (T., Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010). Tilshunoslikda kognitiv tilshunoslikning asosiy o'rganish obyekti bo'lgan "konsept" aqliy jarayonlarning natijasi sifatida bevosita tilda o'zining maxsus verbalizatorlariga, ya'ni uni voqelantiruvchi vositalarga ega. "Giperbola" konsepti ham shunday konseptlar sirasiga kiradi. Giperbolaning asosini (poydevorini), ya'ni uning falsafiy asosini badiiy (ham prozaik, ham poetik) yoki oddiy, kundalik nutqiy mubolag'alashtirish, ya'ni bo'rttirish tashkil etadi, vaholanki, bo'rttirish ma'nosi zamonaviy lingvistik va adabiyotshunoslik lug'atlarida, ensiklopediyalarda hamda boshqa ilmiy izlanishlarda o'z aksini topgan. Giperbola bo'yicha aksariyat ilmiy izlanishlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ushbu ishlar mualliflarining ko'pchiligi giperbolani "stilistik figura"lar sirasiga kiritadilar, ba'zan ular giperbolani "trop deb talqin qiladilar" ayrimlari uni "stilistik vosita (приём)" deb hisoblaydilar. Розенталь, Telenkovalar esa uni "obrazli iboralar" sirasiga kiritadilar.

Shuni ta'kidlash kerakki, giperbola va unga yaqin hamda uyqash bo'lgan hodisalar nazariyasining eng kam ishlangan masalasi bu giperbolaga tamoman teskari bo'lgan konseptual semantika, ya'ni o'ta kichraytirish yoki kamaytirish semantikasi'ni ifodalash uchun maxsuslashgan til hodisalarining maqomi va ularni qanday talqin qilish masalasi bo'lib qolmoqda. Ba'zi bir olimlar obyektiv borliqdagi voqelikning sifat, miqdor daraja kabi tavsifini "o'ta kichraytirish" yoki "o'ta kamaytirish", masalan jimjiloqdek, tirnoqcha, mitti, zig'rdek, bir qultum suv bilan yutib yuborgudek va h.k.larni giperbolaning bir ko'rinishi deb hisoblaydilar.

Giperbola bilan predmet jihati tavsifini "o'ta kichraytirish (o'ta kamaytirish) hodisalari bir-biriga ma'lum jihatdan yaqin va umumiy bo'lsa-da, ular o'rtasida tubdan farq qiladigan lingvokognitiv, struktural-semantik, mazmuniy-semantik, kommunikativ-pragmatik, psixolingvistik va sotsiolingvistik jihatlar, qirralar mavjud ekanligiga urg'u bergan holda, giperbola ifodalaydigan, vaholanki, ifodalashi lozim bo'lgan o'ta kuchaytirish (o'ta kattalashtirish), ya'ni "mubolag'alashtirish"ni, uning aksi bo'lgan o'ta kichraytirish (o'ta kamaytirish), ya'ni "antigiperbolizatsiya" emasligidan kelib chiqib, "o'ta kichraytirish (o'ta kamaytirish)"ni giperbolaning antipodi deb talqin qilishga to'liq asos bor, ya'ni u antigiperboladir. Shunday qilib, giperbolani unga yaqin va uyqash bo'lgan meyozi, litota, metabola, antigiperbola, shuningdek, kuchaytirish, grotesk kabi stilistik hodisalardan aniq

farqlab olish kerak. Mubolag'a janriga oid ma'lumotlar maktab darsliklarida qisqa tarzda berilgan. Mubolag'aning asl mohiyati, qanday ma'no nozikliklarini keltirib chiqarishi, uning barcha turlarini atroflicha ko'rib o'tamiz.

Mubolag'a arab tilida "kattalashtirish", "kuchaytirish" ma'nolarini bildirib, adabiy asarda tasvirlanayotgan badiiy timsol holati yoki harakatini bo'rttirib, kuchaytirib ifodalash san'ati demakdir.

Ul sanamkim, suv yaqosinda paritek o'lturur,

G'oyati nozikligindin suv bila yutsa bo'lur, -

Atoyinig ushbu baytida noziknihol qiz tasvir etilayotganiga shubha yo'q. She'rda mubolag'a bilan birga tashbeh (-dek (-tek) qo'shimchasi tashbeh janrining asosiy formalaridan biri) ham qo'llangan. She'rda ma'shuqa shu qadar nozik, shunchalik go'zal qiz sifatida tasvirlanadiki, go'yo uni bir qoshiq suv bilan yutib yuborish mumkinday (vaholanki, bir qoshiq suv bilan butun bir inson tanasini yutib yuborish mumkin bo'lsa?!).

Mubolag'a va uning darajalari haqida nisbatan to'liqroq ma'lumot Atoulloh Husayniyning "Badoyi' us-sanoyi'" asarida berilgan bo'lib, muallif mubolag'aning tablig', ig'roq, g'uluv, mardud kabi turlarini keltiradi. Mubolag'a Alisher Navoiy ijodida ham juda keng qo'llanilgan: 1) tablig' – bunda bo'rttirib tasvir qilinayotgan hodisa yoki xususiyat aqlga to'g'ri keladi va ba'zan qiyinchilik bilan bo'lsa da, amalga oshishi ham mumkin.

Kecha kelgumdur debon ul sarvi gulru kelmadi,

Ko'zlarimga kecha tong otquncha uyqu kelmadi.

Visol va'dasini bergan yorning kelmagani oqibatida oshiqning kechasi bilan uxlamay chiqishi mubolag'ali tasvir, lekin bu holatni aqlan tasavvur ham qilish mumkin va ba'zan hayotda ham uchrab turadi.

Ig'roq – bunday tasvirda o'quvchi voqea yoki xususiyatni ko'z oldiga keltirib, tasavvur qila oladi, biroq uning amalda yoki hayotda sodir bo'lishi mumkin emas. Masalan, "Farhod va Shirin" dostonida Shirinning oti yiqilay deganda, Farhodning otni va Shirinni yelkasiga ko'tarib bir necha chaqirim yo'l bosishini aqlan qab deganda, Farhodning otni va Shirinni yelkasiga ko'tarib bir necha chaqirim yo'l bosishini aqlan qabul qilish mumkin bo'lsa ham, bunday voqea hayotda yuz berishi mumkin emas:

Ko'tardi orqasig'a bodponi,

Nechukkim bodpo, ul dilraboni...

Chu ikki-uch yig'och gom urdi shaydo,

Bo'lub ollinda qasru havz raydo.

G'uluv– aql ham bovar qilmaydigan, hayotda ham yuz berishi mumkin bo'lmagan mubolag'a:

Har qizil gulkim, yuzung shavqida olib isladim,

yetkach ohim shu'lasi, ani sarig' gul ayladim.

Baytda keltirilishicha, oshiq o'z yorining qizil yuzini sog'inib, qizil gulni olib hidlagan ekan, ohining shu'lasidan qizil gul sariq gulga aylanibdi. Tasvirlanayotgan ushbu hodisani aqlan qabul qilish mumkin emas hamda bunday hodisa hayotda ham yuz bermaydi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, hozirgi zamon tilshunosligida yangi, fanlararo bir yo'nalish – kognitiv tilshunoslik tobora rivojlanib bormoqda. Bu yo'nalishga xos tadqiqotlar antroposentrizm tamoyiliga asoslangan bo'lib, bunday izlanishlarning diqqat markazida inson omili turadi. Shu bilan bir qatorda, kognitiv tilshunoslikning asosiy kategoriyasi bo'lgan

“konsept” mental birlik sifatida, dunyo bilimlarini egallashning birdan-bir vositasi hisoblanadi. Turli konseptlar yoki konseptual semantikalar orasida kognitiv stilistik konseptlardan biri bo‘lgan “giperbola konsepti” universal tabiatga ega bo‘lgan konseptlar sirasiga kiradi va ular tilda so‘zlovchi tomonidan ataylab, vaziatga ko‘ra tez-tez bo‘rttirilmasdan iloji yo‘q. Bu esa ushbu konseptual semantikaning kommunikativ nuqtayi nazaridan ham juda muhim va kerak bo‘lgan semantika ekanligidan dalolat beradi. Giperbolaga daxldor barcha sinonimik, omonimik, giponimik giperonimik va paronimik munosabatlar giperbola konsepti maydoni doirasida uning komponentlari orqali mazkur tizim qonuniyatlari asosida amalga oshiriladi.

S.J.Dyubua rahbarligidagi tilshunoslar guruhining giperbolani tushinishlari o‘ziga xos bo‘lib, ularning fikricha, tilning barcha aspektlariga xos o‘zgarishlarni ular “metabola” (ritorik figura) atamasi orqali ifodalashni maqsadga muvofiq deb topadilar. Giperbola qo‘llanayotganda narsalar kattalashtiriladi, ya’ni intensivlikka moslashtiriladi. Ingliz frazeologiyasi bo‘yicha taniqli olim A.V.Kunin boshqa frazeologik birliklar bilan bir qatorda giperbola yuzasidan olib borgan chuqur, maxsus ilmiy izlanishlarida giperbola semantikasining frazeologik birliklar orqali ham ifodalash mumkinligini ta’kidlab, bunday til birliklarini “ frazeologik giperbola” deb atash maqsadga muvofiq deb to‘g‘ri fikr bildiradi¹.

O‘zbek tilshunosligida G.Keldiyorova E.Vohidov ijodida qo‘llangan antitezalarning lisoniy xususiyatlarini yoritgan. G.Muhammadjonova 80-yillar oxiri 90-yillar boshlarida Muhammad Yusuf, Shavkat Rahmon, Usmon Azim, A‘zam O‘ktamlar tildagi o‘ziga xos ifodasini ijodkorning individual mahorati misolida ochib bergan. Shodiyeva Muhammad Yusuf she‘riyatidagi takrorlarni tahlil qilar ekan, bunda takromni uslubiy vosita sifatida kontakt va distant holdagi takrorlarga bo‘lib o‘rgangan².

Tasviriy vositalarning deyarli barchasida o‘xshatish, chog‘ishtirishdan iborat tushuncha yotadi. “Maxsus ifoda tasviriy vositalar troplar va figuralar deb ikkiga bo‘linadi. Maxsus ifoda-tasviriy vositalari tilda obrazlilik, hissiylik keltirib chiqaradi. Ulardan foydalanish bilan muallif tinglovchining sezgisiga ta’sir qiladi. Bundan tashqari bayonda qisqalikka, aniqlikka erishiladi. Ifodalilik ekspressivlik va aniqlikni ta’minlash niyatida, biror narsaning nomini, belgisini ikkinchisiga ko‘chirish, o‘xshatish yoki so‘zlarni shu maqsadda ko‘chma ma’noda ishlatish troplar deyiladi”. Metafora, o‘xshatish, sifatlash, metonimiya, sinekdoxa, mubolag‘a, allegoriya, jonlantirish, prafraza kabi usullar ko‘chimlarning turlaridir.

Lingvokulturologiyaning o‘rganish obyektiga diqqat qaratadigan bo‘lsak, madaniyatshunoslikda har bir millatga xos, madaniyatiga xos bo‘lgan tushunchalar, ya’ni leksik birliklar mavjud. Masalan bizning o‘zbek, millatining madaniyatini aks ettiruvchi chopon, to‘n, do‘ppi, palov, xonatlas kabi so‘zlar madaniyatimizni aks ettiruvchi so‘zlardir.

REFERENCES:

1. Navoiy asarlari lug‘ati. – T.: Adabiyot va san‘at, 1972. - 791 b.
2. Qilichev E. Badiiy tasvirning leksik vositalari. – Toshkent, 1982. – 87 b.
3. Qobuljonova G. Metaforaning sistemaviy lingvistik talqini: Filol. fan. nomz. ...dis. – Toshkent, 2000.

¹ Shodiyeva M. Muhammad Yusuf she‘rlarida takrorlar. – Toshkent. – B. 36.

² Ko‘rsatilgan asar. – B 38.

4. Qodirov Z., Xoliqova O. Poetik lingvistika / Tilshunoslik va adabiyotshunoslik masalalari. –Andijon, 2002. – B.52-54.
5. Qo‘ng‘urov R. O‘zbek tilining tasviriy vositalari. –Toshkent: “Fan”, 1977. – 152 b.
6. Musayevich, S. A., & Temirovna, K. G. (2021). Linguoculturology in linguistics features of lingvokulturemas in the creativity of rauf parfi. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 10(9), 39-42.
7. Komilova, G. T. (2021). NAZARIY TILSHUNOSLIKDA SISTEMA VA STRUKTURA TUSHUNCHALARINING AHAMIYATI. *Scientific progress*, 2(5), 234-239.
8. Temirovna, K. G. (2021). TIL VA LINGVOKULTUROLOGIYA. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(4), 527-535.
9. Komilova, G. T. (2021). LINGVOKULTUROLOGIYA YANGI SOHA SIFATIDA. *Экономика и социум*, (12-2 (91)), 1022-1029.
10. Komilova, G. (2021). ANTONIM SO'ZLAR VOSITASIDA QADRIYAT VA VAHONING IFODALANISHI. *Academic research in educational sciences*, 2(3), 4-12.
11. Хайруллаева, Р. (2022). АДИБЛАР ЗИКРИЛЛА НЕЪМАТ ИЖОДИ ХАҚИДА. *Мухаррир нашриёти*, 1(1), 1-64.
12. Xayrullayeva, R. L. (2021). Ona tili darsliklarida o‘quvchilarning lug‘at boyligini oshirishga samarali yondashilmoqda. Til ta’limining uzviyligini ta’minlashda innovatsion texnologiyalar muammo va yechimlar, 1(1), 155-158.
13. Khayrullayeva, R. L. (2021). Ways and functions of students speech development. *ACADEMICIA An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(12), 389-393.
14. Matupaeyva, S. Z. (2022). Ta'lim klasteri sharoiti inklyuziv ta'lim samaradorligini oshirishning innovatsion omili. *Maktab va hayot*, 6(170), 17-18.
15. Kuchkinov, A. Y. (2019). Sinfdan va maktabdan tashqari mashg‘ulotlarda o‘quvchilarni tabiatni e‘zozlash ruhida tarbiyalash texnologiyasi. *Boshlang‘ich ta’lim jarayoniga innovatsion yondashuv respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari*, 189-192.